

# BUXORO VOHASI AHOLISINING MILLIY LIBOSLARI VA ULAR BILAN BOG'LIQ URF-ODATLAR (XX ASR MISOLIDA)

*Andijon viloyati Paxtaobod tumani  
5-sonli umumta'lim maktabi  
Tarix fani o'qituvchisi  
G'iyo sova Zarina Yusuf qizi*

## ANNOTATSIYA

Ushbu maqoladan maqsad mustaqillik yillarda Buxoro vohasi aholisining an'anaviy oilaviy marosimlari va ulardagi o'zgarishlarni tarixiy adabiyotlar va dala etnografik materiallari asosida ochib berishdir. Maqolada Buxoro vohasi aholisi oilaviy marosimlari tarixini o'rganish, voha aholisi o'rtasida farzand tug'ilishi bilan bog'liq urf- odatlarni etnografik ma'lumotlar asosida tahlil qilish, marosimlardagi transformatsion jarayonlarni tahlil qilish vazifa qilib belgilandi. Maqolaning amaliy ahamiyati shundaki, o'zbek xalqi oilaviy an'ana va marosimlarini o'tkazilishini tartibga solish, an'ana va urf-odatlarni o'ziga xosligini saqlab qolish, kelajak avlodlarga yetkazish hamda unga oid bilimlarni takomillashtirishga xizmat qiladi. Qadimgi ko'yak namunalari hozirgacha, asosan, qariyalar va yosh bolalar kiyimida saqlangan. Buxoro vohasi ayollari rangdor, bezakli liboslarni xush ko'rishgan. Ko'yaklarni ustma- ust kiyish odati ham bo'lganki, bu insonning ijtimoiy ahvolini belgilagan, ya'ni qancha ko'p ko'yak kiysa, ijtimoiy ahvoli shunchalik yaxshi deb hisoblashgan. Buxoro vohasi aholisining liboslarida bosh kiyim alohida ahamiyatga ega bo'lgan. Do'ppilar, ro'mollarning turli xil ko'rinishlari mavjud bo'lib, ular bugungi kunga qadar o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Misol tariqasida, birinchi farzandini dunyoga keltirgan kelinchaklar uchun maxsus marosim o'tkazilib, sala va ro'mol o'ralgan, kultapo'shak kiydirilgan. Ushbu maqolada kiyimlar bilan bog'liq qarashlar yoritilib, bugungi kunda ularning ahamiyati o'rganilgan. Buxoro xalqi zardo'zi bezakli liboslar kiyishni xush ko'rgan. Hattoki, bu ish bilan shug'ullanuvchi zardo'zlar alohida obro'ga ega bo'lib, zardo'zlik saroy san'ati darajasiga ko'tarilgan. Buxoro amirining zardo'zi choponlari o'z chiroyi va hashamati bilan barchani lol qoldira olgan. Buxoro aholisi liboslar bilan bog'liq urf-odatlaridan yana biri bu voha aholisi orasida eng keng tarqalgan Beshik to'yi bo'lib, vohaning turli hududlarida turlicha nishonlangan. Beshik to'yi vohada "Gavorabandon" nomi bilan yuritilib, bu marosim chaqaloq tug'ilishining yettinchi, to'qqizinchi, o'n birinchi kunlari o'tkazilgan. Unga "it ko'yak" kiydirilgan. Keyinchalik esa bu ko'yak qabristonga oborib ko'milgan. Bundan maqsad bolani har xil yomon ko'zlardan asrash bo'lgan. Maqolada mustaqillik yillarda Buxoro vohasi an'anaviy oilaviy marosimlari bilan bog'liq transformatsion jarayonlar, mintaqaviy xususiyatlar o'rganilib, mavzuga doir tarixiy adabiyotlar, dala etnografik materiallari

va tarixiy adabiyotlarning o‘ziga xos umumiy hamda xususiy jihatlari xulosalandi. Amaliy taklif va tavsiyalardan Buxoro viloyatida oilaviy marosimlar an’analarini izchil rivojlantirish hamda tarixiy-madaniy merosni yanada takomillashtirish maqsadida foydalanish mumkin. . Buxoro vohasi Markaziy Osiyoning qadimiy madaniy- etnografik hududlaridan biri bo‘lib, butun insoniyat sivilizatsiyasiga o‘zining ulkan hissasini qo‘shgan. Voha oilaviy marosimlarida o‘zbek va tojik an’analarining o‘ziga xos xususiyatlari, umumiy va farqli tomonlari ularning kundalik hayotiy ehtiyojlari, turmush tarzi, xo‘jalik faoliyati, dunyoqarashlari, diniy e’tiqodlari va lokal madaniyatlari ta’sirida rivojlanib kelganligi aniqlangan. Dala etnografik materiallari asosida Buxoro vohasida oilaviy munosabatlarda otaning, ya’ni erkak kishining o‘rni yuqoriligi, oilada erkak barcha mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishi hamda ayollarga ham alohida ehtirom ko‘rsatilishi omillari oilada mo‘tadillikni saqlashda muhim o‘rin tutgan.

Buxoro vohasi aholisining asosiy qismi qadimdan savdo-sotiq, tijorat bilan shug‘ullanganligi bois, hududda O‘zbekistonning boshqa hududlariga nisbatan aholining boy qatlami shakllangan bo‘lib, bu holat oilaviy marosimlarda ko‘zga tashlanadi. Vohadagi oilaviy marosimlarning ko‘pligi va o‘tkazilishiga ko‘ra dabdabaliligi bilan boshqa hududlardan ajralib turadi. Aholining oddiy qatlami ham ularga taqlid qilib, marosimlarni shu tarzda nishonlashga harakat qiladi. Garchi bir-bir yarim asrdan ortiq vaqt davomida marosimlarni qisqartirish borasida ko‘pgina farmonlar qabul qilinib, tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birgalikda mazkur maqolada qadim Buxoro vohasida ajdoddardan me’ros bo‘lib kelayotgan kiyim- kechaklar va urf- odatlar haqida ma’lumot beriladi. Buxoro vohasi aholisi qaysi turdag'i matolardan kiyimlar kiyishgani, insonning kiymi uning yoshi, jinsi, ijtimoiy kelib chiqishi haqida ma’lumot berishi ta’kidlangan. Kiyimlar bilan bog’liq urf-odatlarga alohida e’tibor qaratilgan.

**Kalit so‘zlar :** Kayvoni xodima, kultapo‘shak, munisak, paranji, kurta, kelin, qadriyat, an’ana, marosim, gavorabandon, chaqaloq, kayvoni xodima, kultapo‘shak, shabi muborak, udum.

Xalqimizning an’anaviy liboslari tarixi uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Asrlar davomida shakllanib va rivojlanib borgan o‘zbek milliy liboslari xalqimizning milliy xususiyatlari, urf-odatlari,diniy e’tiqodi, estetik didi, ijtimoiy mavqeい, kundalik turmushi kabi jihatlarni o‘zida mujassam etadi.

Kiyimlar kishilarning yoshiga, jinsiga, ijtimoiy kelib chiqishiga,yashayotgan hududning tabiiy iqlim sharoitiga, mavsumga, kiyinish maqsadiga muvofiq tasniflanadi.

Voha liboslarida rang ijtimoiy mavqe, yosh, nasl-nasabni belgilab berishi bilan ahamiyatlidir. Rangga, ayniqsa, to‘y liboslarida alohida urg‘u beriladi. To‘y liboslarida

poklik, ezgulik ramzi bo‘lgan oq rangdan keng foydalanishgan bo‘lsa, qizil rang ko‘z tegishidan himoya sifatida ishlatalig. Aholi tasavvurida hafrangini yetti rangli matodan tikilgan liboslar turli kasallik va balolardan asragan. To‘y marosimlarida yorqin rangli, ko‘zga tashlanuvchi, bezakdor liboslar kiyilgan.

Buxoro vohasi aholisi o‘rtasida kiyimlar bilan bog‘liq marosimlar ham mavjud bo‘lgan va ularning ayrimlari hozirgi kungacha avloddan-avlodga o‘tib kelmoqda. Jumladan, Kulota marosimi [1]- qadimda Yoshi katta ayollar birinchi nabiralik bo‘lishganda kulota kiyganlar, sababi Yoshi ulug‘ inson bo‘ldi deb, sochlarni ikkita qilib kulota kiyishgan. Kulota ba’zi joylarda kulta, kultapes, kultapishak (kultapo‘shak) deb nomlangan. Uning shakli do‘ppiga yeng ulab qo‘yilgandek bo‘lgan, orasidan ikki o‘rim sochlari tashlab yurilgan. Kulota kiygan onalar o‘sha qishloqning kayvonilaridan hisoblanib, ular endi xodimlik, dasturxonchilik, kinnachi, kushonchilik, folchilik bilan shug‘ullanish huquqiga ega bo‘lganlar. Bu an’ana hozirgi kunda ham saqlanib qolgan bo‘lib, qachonki kelin ilk farzandini, yoki o‘g‘il farzandini dunyoga keltirsa, kelinlar safidan chiqib, onalik maqomiga o‘tdi, degan maqsadda kulota kiyishadi. Bu marosim ayollar davrasida o‘tkazilib, kelinga kulotani yoshi ulug‘ kayvoni ayol kigizadi.

Kiyimlar bilan bog‘liq urf-odatlarni biz kelinlar, bolalar liboslarida uchratamiz. Yangi tug‘ilgan chaqaloqqa kindigi tushib cho‘miltirilgan kundan chilla ko‘ylak ( it ko‘ylak) kiygizishgan. Agar tug‘ilgan bola o‘g‘il bo‘lsa erkak itga, qiz bo‘lsa urg‘ochi itning boshiga nomiga kiygizilgan va olib chaqaloqqa kiygizilgan. Bu bolani chillasidan chiqquncha balo qazodan asraydi deb ishonilgan.

X asr muarixi Narshaxiy ta’kidlaganidek, Movarounnahrning birorta shahrida Buxorodagidek chiroyli gazmol to‘qiy olmaganlar. O‘rta asrlarda Buxoro vohasi hududida shoyi va mato to‘qish markazi Zandana qishlog‘i hisoblanib, shu nomdan “Zandanachi” degan mato atamasi kelib chiqqan. Buxoro to‘qimachilik mahsuloti Buyuk Ipak Yo‘li orqali butun dunyoga tarqalgan. Bu matolarda , asosan, och- qizil, och- binafsha, nofarmon ranglardan keng foydalanishgan.

O‘zbekistonning boshqa hududlariga qaraganda, Buxoro an’anaviy liboslari shahar madaniyati ta’sirida qishloq joylardagiga qaraganda tezroq o‘zgarishga uchragan. Buxoroda ikki xalq – o‘zbeklar va tojiklar yashab, ular orasida doimiy madaniy aloqalar borligi liboslarda ham aks etgan.

Voha ayollarining kiyimlari o‘zida an’anaviy mahalliy ko‘rinishlarni mukammal saqlagan. Ayollar kiyimida o‘ziga xos naqshlar, bezaklar, ochiq va yorqin ranglar keng qo‘llanilgan. Shu o‘rinda ta’kidlab o‘tish joizki, O‘rta Osiyo xalqlarining an’anaviy kiyimlarida qadimdan mahalliy o‘ziga xoslik va milliylik ustun bo‘lishi bilan birga ular yaxlit umumiylasosga ham ega bo‘lgan. Ayollar kiyimidagi umumiylilik ularning keng, uzun, to‘g‘ri bichimi va ko‘rinishi bilan izohlanadi. Buxoro ayollarining an’anaviy liboslari sirasiga ko‘ylak, lozim, ustki kiyimlar : “munisak”, ”paranji”, bosh kiyim va

poyabzal kiradi. Kundalik va to‘y marosimlarida tikiladigan kiyimlar tikilish jihatdan har xil bo‘lgan. Ayollar o‘zlariga libos tanlashda kiyimning rangi, matosi va albatta, bezakdorligiga ahamiyat berishgan. Qizlar qizil, o‘rta yosh ayollar ko‘k, yoshi katta ayollar esa ko‘k-yashil, oq rangli matolardan libos kiyishgan. Qariyalarning oq kiyishi ramziy ma’noga ega bo‘lib, o‘zga dunyoga xotirjam ketish uchun barcha gunohlardan poklanishi lozim degan tushuncha bilan bog‘liq.

Ayollar choponining ikki turi mavjud bo‘lib, kaltacha va paranji deb atalgan. Barcha yoshdagi ayollar uchun xos libos kurta bo‘lib, kiftaki kurta qizlar ko‘ylagi, kurtayi peshkusho turmushga chiqqan ayollar ko‘ylagi hisoblangan. Ayollar ko‘ylagini ustma-ust kiyishi odat bo‘lib, qanchalik ko‘p va hasham dor bo‘lsa, bu uning moddiy ahvoli yaxshiliginini bildirgan. Ayollar oq va rangli shoyidan tikilgan ichki ko‘ylakni va zarbof, baxmal matosidan tikilgan tashqi ko‘ylakni kiyishlari shart edi. Ayollar ko‘ylagi keng bichimli, yenglari katta to‘g‘ri burchak shakldaligi bilan ajralib turgan. Marosim va ichki ko‘ylak yenglari uzun, hatto, uch metrgacha bo‘lib, yorqin rangli kashtalar bilan bezak berilgan.[2]

Ko‘ylak uzunligi to‘piqqacha bo‘lgan, lekin oyoq kiyim ko‘rinib turgan. Ko‘ylakning bo‘yin qismi modaga qarab doimo o‘zgarib turgan. Ichki ko‘ylakning yoqasi uchburchak, kovaksimon bo‘lib turli bezaklar berilgan. Buxoroda qimmatbaho kiyimlarga tilla ipdan to‘qilgan jiyak tikilgan. Ko‘pchilik joylarda yoshi ayollar oddiy jun chilvir yoki qoramtil yo‘l –yo‘l mato parchasini jiyak qilib ishlatganlar. XX asrga kelib Turkiston o‘lkasida dastlab shaharlarda, keyinroq qishloq hududlarida tik yoqali yigirmochi ko‘ylak moda bo‘la boshlagan. Qadimgi bichimda tikilgan “Kurtai peshkusho” (old tarafdan belgacha taqilgan) ko‘ylakning bo‘yin qismi belga qadar tikkasiga yirmochli bo‘lgan. U yoqasiz bo‘lib, ko‘ylak oldi tugma bilan qadalgan (avval ip tasma bilan bog‘langan). Bu xildagi ko‘ylak urfdan chiqqach faqat keksa ayollar marosimlarda kiyadigan bo‘lgan. XIX asrning 90-yillarida baland tik yoqali (bo‘g‘ma) ko‘ylak urfga kirgan. Keyinchalik yoqaning yuqori qismi burmalab yoki mayda qatlab bezatilgan.[3]

Qadimgi ko‘ylak namunalari hozirgacha, asosan, qariyalar va yosh bolalar kiyimida saqlangan.

Ayollar bosh kiyimi zar iplar bilan tikilgan kaltapo‘shak bo‘lgan. Bunday bosh kiyimni ,asosan, amir haramidagi ayollar kiygan. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, kaltapo‘shak ikki tomoni ochiq qopchiqidan iborat bo‘lib, undan soch o‘tkazilgan, ustidan esa kata ro‘mol tashlangan. Ro‘mol ustidan peshonaband bog‘langan. Peshonaband ustiga o‘simpliklar va geometric shaklli naqshlarni zarxal ip bilan tikib bezak berilgan. Peshonaband ustidan esa shoyidan tikilgan uchburchak shaklidagi rido ro‘mol tashlangan.

Boy ayollar, aslzoda xonimlar tepasi uchli yoki aylana zardo‘zi telpak kiyganlar. Telpak baxmaldan tayyorlangan .

Ayollar poyabzali sifatida kavushdan foydalanishgan. Bunday kavushlar old tomoni zar iplar bilan bezatilib, chetlariga jiyak tikilgan. Avvallari mahsi qora echki terisidan yashil saxtiyon tovonli qilib tikilgan. Bunday pishiq, mustahkam poyabzal “qayroqi” deb yuritilgan. Ularni tikish ham maxsus mahorat talab qilgan. Maxsus mahallalarda, Kamuxttaron, Attoron, Sangtaroshon kabi joylarda istiqomat qiluvchi mahalliy kosiblar- kavshdo‘zlar tikishgan. Ustki qismi bezatilgan etiklarni boy va amaldorlar xonimlari kiyishgan.

Erkaklarning ichki ko‘ylagi kurta deb nomlanadi. Bunday ko‘ylaklar bichimi keng, uzunligi tizzadan pastroq tushib turgan ammo, vaqt o‘tib ko‘ylakning uzunligi belgacha qisqarib bordi. Kundalikda kiyiladigan ko‘ylaklar uchun xonaki ip gazlamadan, to‘y- marosimlar uchun shoyidan kiyim tikishgan. Erkaklar shimi ezor deb ataladi. U ip gazlamadan tikilgan. Aslzodalar kiyadigan ezor gulli, zarbof matolardan, baxmaldan ham tikilgan, pastki qismiga esa jiyak bilan bezak berilgan.

Erkaklar choponi mavsumda kiyilishiga qarab uch turga bo‘lingan: joma- astari qavilgan kundalik chopon, chakmon- jun matodan tikilgan qishlik chopon, yaktak- baxyasiz yozgi kiyim sifatida kiyilgan. Chopon tikishda shoyi, beqasam, nimshoyi, adres, zarbof matolardan foydalanishgan. Bunday matolar Buxoroni o‘zida to‘qilgan yoki Rossiya va Xitoydan olib keltingan. Buxoro erkaklar choponi ijtimoiy mavqeidan qat’I nazar bir xilda tikilgan. Keng, enli bo‘lib tagidan qavatma- qavat kiyinishga mo‘ljallangan edi.

Din peshvolari ham alohida kiyimga ega bo‘lishgan. Asosan, Oq dokadan tayyorlangan katta salsa o‘rashgan. Ustki kiyim sifatida oq-kumush rangli nimshoyidan tikilgan banoras chopon kiyishgan. Bunday chaponni bugungi kunda Amirning yozgi saroyi bo‘lmish Sitorai Moxi Xossa muzey- qo‘riqxonasida uchratishimiz mumkin.[3] Buxoro amirining zardo‘zi chaponlari hayratlanarli darajada chiroyli bo‘lgan. Aslida, zardo‘zlik san’atiga Amir Temur davrida asos solingan bo‘lib, XIX-XX asr boshlariga kelib u yanada gullab-yashnadi. Ushbu san’at turi bilan erkaklar shug‘ullangan. Eng mohir ustalarning barchasi Buxoroda faoliyat ko‘rsatar edi. XIX asrda zardo‘zlikning bir necha tikish usullari mavjud bo‘lib, bular: Zardo‘zi- zamindo‘zi- zar bilan yaxlit kashta tikish, zardo‘zi-guldo‘zi- qog‘ozdan qirqilgan rasm bo‘yicha kashta tikish, zardo‘zi- guldo‘zi- zamindo‘zi- ikki usulni uyg‘unlashtiruvchi kashta usuli, zardo‘zi- berishimdo‘zi- qurama tikuv, zardo‘zi-pulyakchado‘zi- zardo‘zi kashtani tikilgan zarlar bilan uyg‘unlashtirish. Chaponlarga asosan, butaror va guldo‘zi bezaklari tushurilgan.[4]

Demak, insonlarga ko‘rk bag‘ishlovchi kiyimlar orqali uning keksa yoki yoshligini, uning ijtimoiy mavqeini, erkak yoki ayol ekanligini aniqlab, insonga baho berishimiz mumkin. Kiyim-kechak va bezaklar insonning tashqi ko‘rinishini to‘ldirib, davom ettirib boradi. Ya’ni kiyimda insonning yosh, jins, millat, boylik kabi ijtimoiy mavqeい namoyon bo‘ladi. Shuningdek, majoziy ma’noda qichqiruvchi va jim turuvchi

kiyimlar bo‘lganidek, yolg‘on so‘z kabi aldamchi kiyimlar ham bor. Insonlarda vaqt o‘tgan sayin kiyimlarga nisbatan nafosat tuyg‘usi o‘zgarib boradi.

**Foydalilanilgan adabiyotlar**

1. Mahmud Sattor. ”O‘zbek uduumlari”. - Toshkent, 1993 y/
2. H.H.Kamilova, U.S.Raxmatullayeva, U.T.Muminova. ”XIX-XX asr boshlarida o‘zbek milliy kostyumi” uslubiy ko‘rsatma. - Toshkent 2017 y.
3. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat Ishlari Vazirligi Buxoro Davlat Me’moriy-badiiy muzey- qo‘riqxonasi. - Toshkent 2004 y.
4. P.A.Goncharova. ”Buxoro zardo‘zlik san’ati”. - Toshkent 1986 y.
5. O.A.Suxareva, R.G.Mukminova. ”Kostyum narodov Sredney Azii”. - ”Nauka” 1979 g.
6. S.Xasanova, S.Saidxonova .”To’n”.Fan va turmush jurnali.1995 y.N -3.B-27.